

## VATAN ERKI YO'LIDA QURBON BO'LGAN AJDODLAR XOTIRASI ABADIY QALBIMIZDA

**Muzaffarova Munisa Omonovna**

*Jizzax viloyati Jizzax shahar*

*Xalq ta'limi bo'limiga qarashli*

*17- sonli maktab 11-sinf o'quvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada yurt erki va ozodligi yo'lida jonini ayamagan, so'nggi nafasigacha shu xalq, millat uchun ko'ksini qalqon qilgan jasur va dovyurak ajdodlarimiz xotirasi yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Xotira, jasorat, adolatsiz tuzum, erkinlik, ajdodlar haqqi.*

*Xotira bor ekan, tirikdir millat,  
Tirikdir iftixor, tirikdir g'urur.  
Xotira - elni xalq etguvchi qudrat,  
Xotira - ertani yoritguvchi nur.*

Darhaqiqat, Xotira – millatning, o'zligimizning negizi. U bamisoli yorqin nur, yurtning ertasini yoritib turuvchi mash'aldir. Unga boqqan har bir odam mana shunday erkin va farovon hayotda yashayotgani uchun o'tmishda jon fido etgan shahid ota – bobolarimizni esga oladi.

Aynan u zotlar tufayli biz shunday zaminda go'zal hayot kechirmoqdamiz. Ularning qiyin, tahlikali damlarda bir zum ortga chekinmay, hamjihatlikda qilgan harakatlari, dushmanga bo'yin egmasdan, moli-yu jonini ayamay ko'rsatgan jasoratlari hech qachon yodimizdan chiqmaydi. Bu haqida birinchi prezidentimiz Islom Karimov ham "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida: "Bu hayotning shafqatsiz bir qonuniyati bor. Ya'ni tarixiy murakkab va hal qiluvchi burilish pallasida har qanday millat va elat o'z ahilligi va birdamligini saqlab, o'z manfaatlarini yo'lida qat'iyat bilan turmasa, mas'uliyat va hushyorligini yo'qotadigan bo'lsa, oxir oqibatda o'zining eng katta, tengsiz boyligi bo'lmish mustaqilligi va ozodligidan judo bo'lishi shubhasizdir," – deb aytib o'tilgan. Ammo ota-bobolarimiz tinimsiz kurashdi, so'nggi qoni to'kilmaguncha kurash maydonidan chekinmadi. Bu yo'l davomida bor budini sarfladi, yemadi, ichmadi, kunlari bir burda nonga zor bo'ldi, tunlar oromidan kechdi. Shunday vaziyatlarda ham o'zbeklarga xos bag'rikenglikni, mehr-oqibatni unutmagan odamlar bir-biriga yordam qo'lini cho'zdi, yetimlarni bolam deb bag'riga oldi, topganini o'rtada baham ko'rди, eng muhimi, insoniylikni tark etmadi.

1937-1953- yillarda sobiq SSSR davrida ko'plab vahshiy siyosiy qatag'onlar o'tkazildi. Birgina O'zbekiston bo'yicha 100 ming kishi qatag'on qilinib, shundan 13 ming nafari otib tashlandi. Buni ko'rib nahotki inson bolasining qo'lidan shu darajadagi yovuzliklar qilish kelsa deb o'ylanib qolasiz kishi. Axir shu adolatsiz tuzum,

qirg'inbarot urush tufayli qanchadan qancha ayollar eridan , farzandlaridan, go'daklar esa ota-onalaridan ayrilib yetim bo'lib qoldi. Kurash maydonida millionlab er kishilar, er yigitlar jon taslim qilgan bo'lsa, uyda ochlikdan, kasallikdan jajji norasidalar o'limi yuraklarni larzaga keltiradi. Jangda bir milliondan ortiq yurtdoshlarimiz ishtirok etgan. Ulardan yarim milliondan ortig'i halok bo'lgan, 133 mingga yaqini bedarak yo'qolgan, 60 mingdan ziyodi esa nogiron bo'lib qaytgan. Bu haqiqiy fojia edi.

Shunday bo'lishiga qaramay, bizning xalqimiz irodasini sindirgani yo'q, aksincha, mahkam tutdi, umidini bir lahza bo'lsada so'ndirmadi. To'g'ri, ko'pchilik o'zi kutgan nurafshon kunlarga yetib kelolmadi, ammo ularning avlodlari, ya'ni bizlar shu yorug' kunlarda yashayapmiz, istiqloq va erkinlik havosidan nafas olyapmiz. Biz bu kunlarni nafaqat o'zimiz uchun , balki shu kunlarni orzu qilib o'tgan ajdodlarimiz uchun ham yashashimiz kerak. Ularning mana shu hayotning har lahzasida haqqilari bor. Shu tufayli ularning xotirasini abadiylashtirish maqsadida birinchi prezidentimiz Islom Karimov "9-mayni Xotira va Qadrlash kuni deb e'lon qilish to'g'risida"gi farmonini imzolagan edi. Shu qatorda 1999-yil 9-may sanasida poytaxtimiz bo'lmish Toshkentda Xotira maydoni yaratildi va shu kundan buyon 9-may Xotira va qadrlash kuni sifatida yurtimizning har go'shasida keng nishonlanmoqda. Ayniqsa hozirgi kunda prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan urushda ishtirok etgan faxriylarimizga yuqori darajadagi e'tibor ko'rsatish va g'amxo'rlik qilish davlatimiz siyosatining asosiy va ustuvor yo'nalishi sifatida olib borilmoqda. Ularga bag'ishlab azim poytaxtimizning eng so'lim maskanlaridan birida G'alaba bog'i barpo etildi.

Mana shunday osoyishta o'lkada, barcha qulayliklar va sharoitlar bor Vatanda, mislsiz o'zgarishlar , yuksak rivojlanishlar zamonida yashayotganimizga shukronalar keltiramiz. Har bir tabassumimizda , atrofga sevinch ko'zi bilan boqishlarimizda, oilamiz davrasida ustimiz but, qornimiz to'q hayot kechirayotganimizda biz uchun jon fido aylagan ajdodlarimiz haqqi beqiyos. Ular bir vaqtlar mardlik, shijoat ko'rsatmaganda , balki biz ham hanuz zo'ravonlar zug'umi ostida yashayotgan bo'lardik . Biroq biz shunday bir baxtga muyassar bo'ldikki, bu uchun shahid ketgan u ulug' zotlar oldida bosh egamiz. Ular biz uchun qoldirgan merosni jonimiz evaziga bo'lsada , hamisha ular kabi ko'z qorachig'imizday asraymiz, avaylaymiz. Bu biz uchun ham farz , ham qarz demakdir. Ularning pok ruhi hamisha biz bilan birga, yodi abadiy qalbimizda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T-9. T.: Yangi avlod,2001.
2. Sh. Karimov, R.Shamsutdinov "Vatan tarixi" T.: Toshkent-2010
3. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asari

